

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Sirdaryo viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 oktyabr holatiga 825,8 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 10,0 ming kishiga yoki 1,2 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 353,2 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,8 %), qishloq aholisi soni 472,6 ming kishini (57,2 %) tashkil etdi.


### E'tibor bering: 2018 yil yanvar-sentyabr

- Aholi soni **10,0 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **13,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- **2,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **5,1 mingta nikoh** va **0,8 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Sirdaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-sentyabr oylarida)




### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 oktyabr holatiga, ming kishi)



Sirdaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 oktyabr holatiga eng ko'p aholi soni Boyovut tumanida 126,5 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,3 %ni) va Sirdaryo tumanida 125,2 ming kishini (15,2 %), aksincha eng kam aholi soni Shirin shahrida 18,5 ming kishini (2,2 %) va Yangiyer shahrida 42,2 ming kishi (5,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Guliston tumanida 2,3 %ga, Mirzaobod tumanida 1,9 %ga, Boyovut tumanida 1,7%ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Guliston shahrida 0,9 %ni, Shirin shahrida 0,5% ni tashkil etdi.



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 13,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,6 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida 21,9 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Yangiyer shahrida (21,2 promilledan 21,7 promillega), Xovos tumanida (20,6 promilledan 22,1 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha kamayish esa Shirin (18,1 promilledan 16,0 promillega) va Sardoba (23,3 promilledan 22,1 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



**Qiz bolalar:**  
6,4  
ming nafar



**O'g'il bolalar:**  
6,9  
ming nafar

### Sirdaryo viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni (Yanvar-sentyabr, kishida)

	2017 y.	2018 y.	o'sish sur'ati % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>13245</b>	<b>13281</b>	<b>100,3</b>
Guliston sh.	1287	1274	99,0
Shirin sh.	249	222	89,2
Yangiyer sh.	652	680	104,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	840	835	99,4
Boyovut	2124	2076	97,7
Guliston	1205	1207	100,2
Sayhunobod	1226	1282	104,6
Mirzaobod	1290	1210	93,8
Sardoba	1094	1056	96,5
Sirdaryo	1876	1910	101,8
Xovos	1402	1529	109,1

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 2,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida 4,9 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Shirin shahrida (4,6 promilledan 5,3 promillega) va Sardoba tumanida (4,0 promilledan 4,2 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayish Guliston shahrida (6,0 promilledan 5,5 promillega), Yangiyer shahrida (5,6 promilledan 4,6 promillega), Sirdaryo (6,1 promilledan 5,5 promillega) va Xovos 4,4 promilledan 3,8 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Vafot etganlar



**Erkaklar:**  
1,5 ming  
kishi

**Ayollar:**  
1,3 ming  
kishi

### Sirdaryo viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (Yanvar-sentyabr, kishida)


	2017 y.	2018 y.	o'sish sur'ati % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2947</b>	<b>2810</b>	<b>95,4</b>
Guliston sh.	392	361	92,1
Shirin sh.	64	74	115,6
Yangiyer sh.	172	144	83,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	147	156	106,1
Boyovut	387	396	102,3
Guliston	263	255	97,0
Sayhunobod	229	224	97,8
Mirzaobod	246	227	92,3
Sardoba	187	201	107,5
Sirdaryo	559	511	91,4
Xovos	301	261	86,7

## Demografik holat

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 63,4 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,8 %i o'simtalardan, 5,2 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 7,4 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,0 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,7 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 9,5 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,2 ming nafarni tashkil etib, ularning 66,9 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 21,4 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,5 %i tug'ma anomaliyalardan, 2,1 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,7 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 1,4 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 2,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



### 2018 yil yanvar-sentyabr

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 10,0 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 0,5 ming kishiga ko'paydi. (2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida 9,5 ming kishi bo'lgan).



Tabiiy o'sish:  
10,0 ming kishi

**Nikoh.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 5,1 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,2 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Sardoba (138,3 %), Guliston (112,7 %), Oqoltin (118,8 %), Sirdaryo tumani (110,7 %) va Xovos (111,5%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,8 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 1,3 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Sardoba (125,7 %), Xovos (116,7 %), tumanlariga va Yangiyer shahriga (115,4 %) to'g'ri kelmoqda.



**Sirdaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajralishlar soni, birlik (Yanvar-sentyabr)**



	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati % da	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>4559</b>	<b>5054</b>	<b>110,9</b>	<b>784</b>	<b>793</b>	<b>101,1</b>
Guliston sh.	458	486	106,1	153	161	105,2
Shirin sh.	79	89	112,7	22	13	59,1
Yangiyer sh.	256	282	110,2	52	60	115,4
<i>tumanlar:</i>						
Oqoltin	271	322	118,8	36	39	108,3
Boyovut	794	840	105,8	98	107	109,2
Guliston	412	463	112,4	50	54	108,0
Sayhunobod	426	451	105,9	52	46	88,5
Mirzaobod	380	389	102,4	48	41	85,4
Sardoba	313	433	138,3	35	44	125,7
Sirdaryo	693	767	110,7	172	151	87,8
Xovos	477	532	111,5	66	77	116,7

## Demografik holat

**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6,4 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 6,9 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,5 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 0,7 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Guliston shahrida (minus 0,4 ming kishi), Sayhunobod tumanida (minus 0,1 ming kishi), qayd etildi.

	2017 yil yanvar- sentyabr	2018 yil yanvar- sentyabr
<b>Ko'chib kelganlar</b>	5,7	6,4
<b>Ko'chib ketganlar</b>	6,4	6,9
<b>Migratsiya saldosi</b>	-0,7	-0,5

	Kelganlik			Ketganlik		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati % da	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>5694</b>	<b>6379</b>	<b>112,0</b>	<b>6418</b>	<b>6912</b>	<b>107,7</b>
Guliston sh.	841	1021	121,4	1236	1414	114,4
Shirin sh.	174	159	91,4	249	265	106,4
Yangiyer sh.	688	579	84,2	424	538	126,9
<i>tumanlar:</i>						
Oqoltin	398	342	85,9	447	466	104,3
Boyovut	600	768	128,0	755	813	107,7
Guliston	605	776	128,3	475	497	104,6
Sayhunobod	421	317	75,3	474	463	97,7
Mirzaobod	541	703	129,9	526	657	124,9
Sardoba	309	422	136,6	433	419	96,8
Sirdaryo	591	638	108,0	716	639	89,2
Xovos	526	654	124,3	683	741	108,5

**Tug'ilish darajasi.** 2018 yilning yanvar - sentyabridada tug'ulganlar soni 13281 kishini tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga (13245 kishi ) nisbatan 36 kishiga ko'paydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda 21,9 promilledan (21,6 promille)ga kamaydi. Tug'ilish darajasining kamaish viloyatning shirin shaxri (18,1 promilledan 16,0 promillega), Sardoba tumanida (23,3 promilledan 22,1 promillega ), Boyovut tumanida (23,0 promilledan 22,1 promillega ), Mirzaobod tumanida (25,1 promilledan 23,0 promillega ), tumanlarida kuzatiladi .

### Aholining tabiiy xarakati koefitsienlari

(2018 yilning yanvar-sentyabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)

